

**Maxsulot sotish va xarid qilish  
№3/03 sonli SHARTNOMA.**

08.04 2022yil

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma Nizom asosida ish yurituvchi "Davr mix 777" MChJ keying o'rinlarda "Sotuvchi" deb ataladi) nomidan rahbar D.Aliyev birinchi tomon va ikkinchi tomon – Uzbekiston Respublikasi Konunchiligi hamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi nomidan rahbari U. Jullaev (kelgusida "Xaridor" deb ataladi) o'rtalarida quyidagi maqsadlarda tuzildi.

**1. Shartnoma predmeti.**

1.1. "Sotuvchi" "Xaridor" ga quyidagi maxsulotlarni yetkazib beradi:

**Manzarali va mevali daraxtlar**

1.2. Mazkur shartnomaning umumiy qiymati **49 450 000 (Oirq toqqiz million to'rt yuz ellik ming) so'm** (raqam va so'z bilan tuliq yoziladi) sumni tashkil qiladi.

1.3. Maxsulotlar quyidagi assortimentda yetkazib beriladi:

Maxsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
Bodom	Dona	500	10000	5 000 000
Yong'oq	Dona	50	10000	500 000
Tut	Dona	6000	4000	24 000 000
Terak	Dona	2000	3500	7 000 000
Gilos	Dona	50	15000	750 000
Olcha	Dona	400	8000	3 200 000
Qirim sosna	Dona	180	50000	9 000 000
JAMI				49 450 000

**2. Yetkazib berish va hisob-kitoblar shartlari**

2.1. Maxsulot uchun to'lov pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma umumiy summasining 30% ya'ni **14 835 000** so'mni avans tariqasida shartnoma to'liq kuchga kirgan kundan boshlab 20 bank ish kuni mobaynida, qolgan ya'ni **34 615 000** so'mni mahsulot yetkazib beruvchi mahsulotni yetkazib bergan kundan boshlab 20 bank kuni davomida yetkazib beruvchining bank hisobraqamiga o'tkazib beradi.

2.3. Maxsulotlar uchun narx o'zaro kelishilgan holda belgilanadi.

Bunda Uzbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilangan narxlar asos qilib olinadi.

2.4. Agar davlat nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish va taftishlar natijasida yetkazib berilgan maxsulotlariga belgilangan narxlar yuqori deb topilsa, ushbu farq "Sotuvchi" zimmasidan qoplanadi.

2.5. Shartnoma summasidan ortiq maxsulot yetkazib berilganda ("Buyurtmachi" ogohsiz bajarilganda) hisob-kitob "Buyurtmachi" tomonidan amalga oshirilmaydi.

**3. Maxsulot yetkazib berish**

3.1. Maxsulot yetkazib beruvchi maxsulotni xisobraqamiga avans mablag'I kelib tushgan kundan 5 bank ish kunida yetkazib beradi.

3.2. "Sotuvchi" shartnomada belgilangan maxsulotlarni "Xaridor" talabigamuvofiq muassasalarga, sifatini hamda but holda yetkazib beradi va transport harajatlarni o'z zimmasiga oladi.

3.3 Yetkazib berilgan maxsulot uchun ma'sul shaxs tomonidan xisobvaraqa faktura qabul qilganligi to'g'risida imzo qo'yib olgan vaqtdan boshlab BYURTMACHI mulkiga aylanadi.

**4. Maxsulotni topshirish va qabul qilish.**

4.1 Buyurtmachi va kafolatli shaxs qabul qilib olish jarayonida maxsulotning ishga yaroqligini, sifatini, miqdori jixatdan shartnomaga mos kelishini tekshirib olish lozim. Maxsulot to'liq qabul qilib olingandan so'ng maxsulotni saqlash javobgarligi buyurtmachi vakolatli shaxs zimmasiga o'tadi.

**5. Tomonlarning xuquqi va majburiyati**

5.1. "Sotuvchi" "Xaridor" tomonidan yuborilgan vakil, muassasa raxbari va bosh hisobchi tomonidan imzolangan, hamda yumaloq muhr bosilgan ishonch qog'ozi ko'rsatgandan so'ng maxsulot beradi.

5.2. "Sotuvchi" maxsulotni sifatini tasdiqlovchi xujjat (muvofiqlik sertifikatini va sanitariya-gigiyena sertifikatini, xulosasi va hokazolar), hamda mahsulotdan namuna taqdim etadi va aynan shu namunadagi maxsulotlarni yetkazib berishga kafolat beradi.

5.3. "Sotuvchi" xujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilishini o'z zimmasiga oladi, hamda maxsulotlarni muassasalarga yetkazib beradi.

5.4. "Xaridor" shartnomada ko'rsatilgan maxsulotni sifati talabga javob bergan xolatdagina uni qabul qilib oladi.

5.5. "Xaridor" qabul qilib olgan maxsulotni shartnoma talablariga muvofiqligini aniqlagan holda, "Sotuvchi" ga yozma dalolatnoma (AKT) yuboradi, hamda sifatsiz deb topilgan maxsulotni "Sotuvchi" ga qaytarib beradi.

5.6. "Sotuvchi" "Xaridor" ga uning ishonchqog'ozida qayd qilingan maxsulotlar beradi. Agar "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor" ning ishonch qogozida ko'rsatilmagan maxsulotlarni, yoki maxsulotlarni ishonch qog'ozida belgilangan miqdoridan ortiq bergan xollarda, bu maxsulotlar uchun "Xaridor" tomonidan xaq to'lanmaydi.

5.7. "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor" ga sifatsiz yoki sertifikatsiz maxsulotlar yetkazib berilsa, bu maxsulotlar "Sotuvchi" ga qaytarib beriladi yoki bu maxsulotlar uchun xaq to'lanmaydi.

5.8. "Sotuvchi" yetkazib bergan maxsulotlarini xisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, maxsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, xisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rasmiylashtirishi

shart.To'liq rasmiylashtirilmagan xamda maxsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan xisob-varaqlar bo'yicha to'lov amalga oshirilmaydi.

#### 6. Taraflarning javobgarligi.

6.1. Tomonlar tarafidan shartnoma shartlari buzilgan hollarda, javobgarlik O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik Kodeksi" ga, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining Shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risidagi xamda O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonun xujjatlariga, shuningdek ushbu shartnomaga muvofiq belgilanadi.

6.2. Agar "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor" ga sifatsiz, yoki saqlash muddatlari o'tib ketgan maxsulotlarni yetkazib kelgan holda "Xaridor" "Sotuvchi" dan bunday maxsulotlarning umumiy qiymatidan 50%, lekin shartnomaning 1.2 bandida ko'rsatib o'tilgan summasining 50 foizidan oshmagan holda jarima qo'llab, qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olinadi.

6.3. Agar "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor" ga maxsulotlar belgilangan muddatlarida yetkazib kelinmasa, kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda peyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan maxsulotlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi kerak.

Agar majburiyatlarning bajarilmasligi fors-major holatlarining oqibati hisoblansa, sotuvchi penya to'lash majburiyatidan xalos qilinadi.

6.4. Jarimalar to'lanishi "Sotuvchi" ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6.5. Yetkazib berilgan maxsulotning qiymati shartnomada kelishilgan muddatlarda, o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda "Xaridor" "Sotuvchi" ga har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

Agar majburiyatlarning bajarilmasligi fors-major holatlarining oqibati hisoblansa, "Xaridor" penya to'lash majburiyatidan halos qilinadi.

#### 7. Nizolarni hal etish tartibi.

7.1. Shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar bo'yicha tomonlar kelishish horalarini ko'radilar.

7.2. Tomonlar kelisha olmagan taqdirda O'zbekiston Respublika qonunlariga asosan Xujalik sudlari orqali hal qilinadi.

#### 8. Fors-major holatlari.

8.1. Shartno matuzilgandan so'ng bartaraf etilishi tomonlarning tasiri va istaklariga bog'liq bo'lmagan vaqtincha yoki uzoq vaqt shartnomani zarur darajada amalga oshirishda halaqit beradigan vaziyatlar sodir bo'lganda, ya'ni tabiiy ofatlar, noqulayob-havo sharoiti, hukumat tadbirlari, xokimiyat organlarining qarorlari, xarbiy nizolar, ichki tartibsizliklar va boshqa hollarda, yuqorida aytib o'tilgan holatlar mavjudligi tufayli tomonlar tarafidan shartnoma majburiyatlari buzilgan deb hisoblanmaydi va shartnoma majburiyatlarini bajarish muddatlari ushbu holatlar davom etish vaqtiga suriladi.

8.2. Shartnoma majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan tomondan holi ikkinchi tomonni yuqoridagi holatlarning yuzaga kelganligi, shuningdek bartaraf etilganligi to'g'risida habardor qilishi kerak.

8.3. Bartaraf etilishi mumkin bo'lmagan vaziyatlar sodir bo'lgani yoki ularni bartaraf etilgan haqida o'zvaqtida, 15 kundan ko'p bo'lmagan muddatda habar bermagan tomon keyinchalik shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda, bu vaziyatlarni sabab qilib ko'rsata olmaydi.

#### 9. Shartnoma amal qilish muddati

9.1. Shartnoma ikkala tomonlar imzolanganidan so'ng kuchga kiradi.

9.2. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil "31" dekabr.

9.3. Shartnoma tomonlar kelishuviga asosan, "Sotuvchi" tomonidan yetkazib berilgan maxsulot "Xaridor" tomonidan sifatsiz deb topilganda va "Sotuvchi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.1 bandi bajarilmaganda shartnoma "Xaridor" tomonidan bekor qilinganligi to'g'risida "Xaridor" "Sotuvchi" ga yozma ravishda, asoslarni keltirgan holda hat bilan ma'lum qiladi.

#### 10. Qo'shimcha shartlar

10.1. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, xar bir nusxasi teng yuridik kuchga ega bo'lib tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.

10.2. Shartnomaga barcha o'zgartirishlar ikkala tomonlama kelishilgan va shartnomaga qo'shimcha bitim imzolangan holda qonuniy deb hisoblanadi.

10.3. Shartnomaning q'aznachilik bo'limi ro'yhatga olgandan so'ng to'liq kuchga ega deb hisoblanadi.

#### 11. Tomonlar huquqiy manzili va bank rekvizitlari

«S O T U V C H I»

"Davr mix 777"

Ma'suliyati cheklangan  
jamiyati


Quva tuman Teraktg iqishlog'i

X/r: 2020 8000 9050 6359 5001

Qishloq qurilish bank Bosh amaliyot  
bosqarmasi

MFO: 01037 INN: 306332380

Tel: +998-162-52-52

Raxbar:  D. Aliyev.


«ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI QO'SHIMCHA  
KUKON SHAHAR USMON NOSIR KUCHASI 4-UYI  
X/P: 2340 2000 3001 0000 1010  
INN: 201 122 919 SHXPR: 4009 10X6030509400029003  
Moliya Vazirligi Foznachiligi MFO: 00014  
Toshkent shahar XKKM MB INN: 201 122 919 204286726


Moliya Vazirligi G'znachiligi

X/r- 23402000300100001010

Markaziy bank XKKM Toshkent sh

MFO:00014INN - 201122919

Raxbar:  M. Yusubov

Huquqshunos:  X. Yusubov

**«DAVR MIX 777»**  
**Ma'suliyati cheklangan jamiyat**

Quva tuman Teraktagi qishlogi  
X/r: 2020 8000 605063595001  
Qishloqquyilish bank Quvafiliali  
MFO: 00867 INN:306332380

**«DAVR MIX 777»**  
**Маъсулияти чекланган жамият**

Quva tuman Teraktagi qishlogi  
X/r: 2020 8000 605063595001  
Qishloqquyilish bank Quva filiali  
MFO: 00867 INN:306332380

№23

« 17 » март 2022 й

Ислом Каримов номидаги  
Тошкент давлат техника  
университетининг Кукон  
филиалига

**ТИЖОРАТ ТАКЛИФИ**

«DAVR MIX 777» Маъсулияти чекланган жамияти сизга, куйидаги нархларда ҳамда сифатли кучатлар ва манзарали дарахтларни **49 450 000** (Кирк туккиз миллион тurt юз эллик минг) сумга сотиб олишингизни таклиф этади.

Махсулот номи	Ўл. Бирлиги	Микдор	Нархи
Бодом	Дона	1	10000
Ёнгок	Дона	1	10000
Тут	Дона	1	4000
Терак	Дона	1	3500
Гилос	Дона	1	15000
Олча	Дона	1	8000
Кирим сосна	Дона	1	50000



«DAVR MIX 777»  
МЧЖ рахбари:

Д.Алиев

Таклиф этилаётган нархларни асослантириш калкуляцияси

Сотиб олинган нархи				Етказиб бериш киймати			
Номи	Улчов бирлиги	Микдори	Нархи	Номи	Улчов бирлиги	Микдори	Нархи
Бодом	Дона	1	8500	Бодом	Дона	1	10000
Ёнгок	Дона	1	8500	Ёнгок	Дона	1	10000
Тут	Дона	1	3400	Тут	Дона	1	4000
Терак	Дона	1	2975	Терак	Дона	1	3500
Гилос	Дона	1	12750	Гилос	Дона	1	15000
Олча	Дона	1	6800	Олча	Дона	1	8000
Кириим сосна	Дона	1	42500	Кириим сосна	Дона	1	50000



« DAVR MIX 777 »  
MЧЖ рахбари

*(Handwritten signature)*

Д.Алиев